5

TARIXDAN HIKOYALAR

O‘qituvchilar uchun metodik tavsiya



Ushbu metodik tavsiya Respublika ta’lim markazi
Ijtimoiy fanlar bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan.

Toshkent – 2025

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

1-dars. O‘zbek davlati tarixi 5
2-dars. Samarqand viloyati 8
3-dars. Davlat bayrog‘i tarixi.....12
4-dars. Buxoro viloyati.....14
5-dars. Xorazm viloyati va Quyi Amudaryo hududi 17
6-dars. Navoiy viloyati 20
7-dars. Bosh tuzugimiz tarixi 23
8-dars. Davlat madhiyasi tarixi 26
9-dars. Qashqadaryo viloyati 28
10-dars. Surxondaryo viloyati 31
11-dars. Jizzax va Sirdaryo viloyati 33



“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm,
Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya,
Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”.

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Tarix millatlarning o‘tmishini, taraqqiyotini
hamda tanazzulining sabablarini o‘rgatuvchi fandir.
Abdurauf Fitrat

Mazkur metodik tavsiya 5-sinf uchun mo‘ljallangan “Tarixdan hikoyalar” fanidan samarali foydalanish, o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish va ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiya o‘qituvchilarga dars jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hamda bilish imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘qitish yo‘lida yordam beradi.

Metodik tavsiya dars jarayonida nafaqat ma’lumot beruvchi vosita sifatida, balki o‘quvchini faol ishtirok etuvchi va fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Ushbu metodik tavsiya o‘qituvchilarga dars samaradorligini oshirish, “Tarixdan hikoyalar” fanining tarbiyaviy va ma’rifiy ahamiyatini chuqur anglash hamda o‘quvchilarning tarix faniga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirishda ishonchli yordamchi bo‘lib xizmat qiladi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

1-MAVZU

O‘ZBEK DAVLATI TARIXI

Kun maqoli: “Davlati bor elning savlati bor.” (Shu yerda o‘qituvchi o‘quvchilarni maqolning mazmuni ustida o‘ylashga, ya’ni uning ma’nosini tushunishga yo‘naltiradi.)

DARSNING MAQSADI

O‘quvchilarda davlat tushunchasi, O‘zbekiston Respublikasining asosiy belgilari hamda o‘zbek davlatchiligining qadimiy ildizlarini tushunish ko‘nikmasini shakllantirish; tarixiy shaxslar misolida milliy g‘urur va Vatanga sadoqat tuyg‘usini tarbiyalash.

Dunyoda 7000 ga yaqin ortiq xalq yashaydi. Ammo ularning hammasi ham o‘z davlatiga ega emas. Faqat 193 ta xalqninggina mustaqil davlati bor. Demak, o‘z davlatiga ega bo‘lish – har bir xalq uchun katta baxt va sharaf. Biz ham shunday baxtli elmiz, chunki bizning o‘z davlatimiz bor – bu O‘zbekiston Respublikasi!

O‘zbekiston – mustaqil, ozod va tinchliksevar mamlakat. Vatanimizning poytaxti Toshkent, davlat tilimiz o‘zbek tili, milliy pul birligimiz esa so‘m deb ataladi. O‘zbekistonning yer maydoni 448 978 kvadrat kilometrni tashkil etadi, aholisi esa 38 milliondan ortiq. Bizning yurtimizni xalq o‘z irodasi bilan, saylovlar orqali tanlagan rahbarlar boshqaradi.

BU QIZIQ

Ilk davlatlar bundan 5 ming yil avval Mesopotamiya (hozirgi Iroq hududi)da paydo bo‘lgan. Bu yerda Shumer davlati deb atalgan qadimiy davlat vujudga kelgan.

“Davlat” so‘zi – xalq, hudud va hokimiyatni birlashtirgan tartibli boshqaruv tizimi degan ma’noni anglatadi. Ya’ni, davlat bu – odamlar tinch yashashi, qonunlarga amal qilishi va o‘z yerini himoya qilishi uchun yaratilgan tartib.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida shunday yozilgan:

“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.”

Ya’ni, davlatni xalq tuzadi va uni xalqning o‘zi boshqaradi. Xalq nomidan faqat saylangan Prezident va Oliy Majlis vakillari ish olib borishlari mumkin. Hech kim, hatto eng katta tashkilot ham, xalq nomidan so‘zlashga haqli emas.

Davlat xalq yashaydigan ulkan uyga o‘xshaydi. Qanday qilib har bir oila o‘z uyida tartib-qoida va tinchlikni saqlasa, davlat ham o‘z hududida tartibni ta’minlaydi. Davlatning ham yer maydoni, chegarasi, iqtisodi, qonun-qoidalari, boyligi va an’analari bo‘ladi.



Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy bundan 1100 yil ilgari shunday degan edilar:

“Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga eltishdir. Bu esa ilm va yaxshi axloq orqali amalga oshadi.”

Demak, har bir xalqning farovonligi bilim va ezgulikda.



“Davlatda adolat bo‘lishi uchun hokimiyat bir kishining qo‘lida emas, balki bir nechta mustaqil tarmoqlarga bo‘lingan bo‘lishi kerak.” Bu fikr fransuz faylasufi Sharl Monteskega tegishli. U hokimiyat uchga bo‘linganda jamiyatda adolat qaror topishini aytgan.

Shu tamoyil bizning Konstitutsiyamizda ham o‘z ifodasini topgan:

O‘zbekistonda hokimiyat uch tarmoqqa bo‘linadi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati. Ularning uyg‘un ishlashini esa Prezident ta’minlaydi. (Shu yerda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda davlat hokimiyatining tarmoqlarga bo‘linishi va davlat boshlig‘i (Prezident)ning vazifalari haqida fikr almashadi).

O‘zbekiston davlatchiligi esa juda qadimiy ildizlarga ega. Qadimda davlatlar hozirgidek katta emas, balki bitta shahar atrofida shakllangan. Shuning uchun ularni “shahar-davlatlar” deb atashgan. O‘zbekiston hududida ham ilk davlatlar bundan 3–4 ming yil avval paydo bo‘lgan. Eng qadimgi shahar-davlatlar sifatida tarixda Sopllitepa, Jarquton (Surxondaryo vodiysi) va Dalvarzin (Farg‘ona vodiysi) nomlari tilga olinadi.

Bu joylarda ilk o‘troq hayot boshlanib, dehqonchilik, bog‘dorchilik va hunarmandchilik rivoj topgan. Shunday qilib, ajdodlarimiz qadim zamonlardan boshlab o‘z yurtida mustaqil hayot kechirgan, shaharlar qurgan va o‘z davlatini barpo etganlar.



Tarixchi Muhammad Narshaxiy o‘z asarlarida shunday yozadi: Buxoro shahrini Alp Afrosiyob, ya’ni Alp Er To‘nga qurgan. Bu jasur sarkarda xalqimizning eng qadimiy pahlavonlaridan biri bo‘lgan. Uning nomi “yo‘lbarsday kuchli” degan ma’noni bildiradi. U O‘zbekistonning eng qadimiy hukmdorlaridan biri hisoblanadi. (Shu o‘rinda o‘qituvchi o‘quvchilarga Afrosiyob aslida Alpomish singari jasur, afsonaviy qahramon – Alp Er To‘nganing fors manbalarida tilga olingan shakli ekanini tushuntiradi).



O‘zbek tarixida ayol hukmdorlar ham bo‘lgan. Ulardan biri – Tomir xotun. U miloddan avvalgi VI asrda yashagan, Alp Er To‘nganing avlodi bo‘lgan deb taxmin qilinadi. Tomir xotun o‘z davrida jasorati, aql-zakovati bilan xalqini himoya qilgan. U tarixda o‘z nomini abadiy qoldirgan ilk o‘zbek malikasi sifatida e’tirof etiladi (o‘qituvchi o‘quvchilarga To‘maris (Tomir xotun) tarixiy siymosi nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Yevropada ham juda mashhur ekanligini tushuntiradi. Unga bag‘ishlab suratlar chizilgan, haykalchalar yasalgani hamda hatto asarlar sahnalashtirilganini aytib o‘tadi).

Ajdodlarimiz ming yillar avval birinchilardan bo‘lib o‘troq hayotga o‘tgan, ekin ekkan, bog‘lar yaratgan, qal’a va shaharlar qurgan. Ular o‘z davlatini barpo etib, boy madaniyatni yaratgan. Shuning uchun ham biz faxr bilan aytamiz: Turon sivilizatsiyasi insoniyat tarixidagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biridir.

Biz – ana shu buyuk ajdodlarning merosxo‘rimiz. Ularning jasorati, ilmi va vatanparvarligi bugun ham biz uchun ibratdir.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sizningcha, “davlat” deganda nimani tushunasiz?
2. Bizning davlatimiz qanday nomlanadi?
3. Sizningcha, qadimda ham bizning yurtimizda davlat bo‘lganmi?
4. Sharl Monteske fikri haqida gapirib bering.
5. Tomir xotun kim?

2-MAVZU

SAMARQAND VILOYATI

Samarqand viloyati 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan.

DARSNING MAQSADI

Usbu mavzuda siz Samarqand shahri va nomining tarixi, shaharda joylashgan tarixiy obidalar hamda uning insoniyat tarixidagi tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar bilan tanishasiz.

Samarqand – dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biridir. Uning tarixi 2700 yildan ortiq deb hisoblanadi. Shahar bir necha davlatlarning poytaxti, iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lish bilan birga, Xitoydan Yevropagacha cho‘zilgan Buyuk Ipak yo‘lining markaziy nuqtasi bo‘lib xizmat qilgan. Shu boisdan Samarqand nafaqat O‘zbekiston, balki butun insoniyat tarixida beqiyos o‘rin egallaydi.

Endi Samarqand shahri nomining kelib chiqishi va uning ma’nosiga to‘xtalsak, bu boradagi bahslar hanuz davom etmoqda. Ko‘pchilik Sharq mualliflari “Samarqand” so‘zining birinchi qismi – “Samar” so‘zini shaharni asos solgan yoki uni bosib olgan kishi nomi bilan bog‘laydilar. Ayrim yevropalik olimlar esa bu so‘zning qadimdan qolgan, sanskrit tilidagi “Samaria”, ya’ni “yig‘ilish, yig‘in” so‘ziga yaqin ekanini ta’kidlaydilar. Antik davr manbalarida esa shahar “Marakanda” deb atalgan. Bu, ehtimol, “Samarakanda” nomining yunoncha shakli bo‘lishi mumkin.

BU QIZIQ

Yetti iqlimga ayon Samarqanddagi aziz zotlar dafn etilgan Shohi Zinda, ya’ni “Tirikshoh” majmuasi ajdodlarimiz tarixi va taqdirida alohida o‘rin tutadi.

Samarqand jahon shaharsozligi tarixida chuqur iz qoldirgan qadimiy maskanlardan biri sanaladi. Miloddan avvalgi I ming yillikning o‘rtalaridan u Sug‘d viloyatining ma’muriy markazi bo‘lgan. Shahar orqali Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo aloqalari, ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan. Samarqand savdogarlari Xitoy, Eron, Misr, Suriya, Hindiston va Vizantiya bilan faol savdo qilganlar. Shu yerda Sharq va G‘arb madaniyatlari to‘qnashib, bir-birini boyitgan. Shu bois Sharqda mashhur maqollardan birida: “G‘arbda Rim, Sharqda Samarqand” deyilgan.

Samarqand bugungi kunda ham o‘tmishning tirik guvohi bo‘lib turadi. Shaharda ko‘hna tarixidan darak beruvchi yodgorliklar hanuz saqlanib qolgan. Samarqandda qad rostlagan tarixiy obidalar qatoriga Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi, Go‘ri Amir maqbarasi, Bibi Xonim masjidi va Ulug‘bek rasadxonasi kiradi. Ushbu obidalar o‘zining betakror me’morchiligi, naqsh va gumbazlari bilan jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Samarqand shahrida arxitektura yodgorliklarini tiklash va ta’mirlash, ayniqsa, eski shahar qismini qayta qurish va obodonlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar nafaqat tarixiy merosni asrash, balki uni zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan edi.

2001-yilda YUNESCO tomonidan Samarqand “Madaniyatlar chorrahasi” nomi ostida Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi, chunki Samarqand qadimdan Buyuk Ipak yo‘lining markaziy nuqtalaridan biri bo‘lib, fors, yunon, arab, turk va mo‘g‘ul madaniyatlarining chorrahasida joylashgan.

Samarqand bugun ham o‘zining boy tarixi, ilmiy va me’moriy merosi bilan dunyo xalqlarini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Uning obidalari o‘tmishdan so‘zlaydi, ko‘chalarida esa tarix va zamon uyg‘unlashib turadi. Shu bois Samarqandni bilish – bu o‘z tarixini, o‘z ildizini anglash demakdir.


Qadimiy Samarqandga tashrif buyurgan sayyohlar bu muazzam shahar yuragi – Registon maydoni va unda qad rostlagan uch madrasa – Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalarining go‘zalligi va salobatidan hayratga tushadilar. Ular bu nafis manzaraning jozibasini soatlab tomosha qilib, sehrli oqshomlarida taralayotgan sukunat qo‘shig‘ini tinglaydilar.

Registon nomi har bir samarqandlik uchun bag‘oyat azizdir. Bu maydon qadimdan Samarqand shahrining boshidan kechgan shodlik va qayg‘uli kunlarning tirik, tilsiz guvohi bo‘lib kelmoqda. Mirzo Ulug‘bek zamonidan buyon Registon Samarqand ahli uchun Bosh maydon hisoblanadi. Yillar davomida shahar hukmdorlarining farmonlari aynan shu yerda e’lon qilingan.






1370-yilda Amir Temurning Movarounnahr hukmdori deb e‘lon qilinishi Samarqand tarixida yangi sahifa ochdi. Temur va temuriylar hukmronligi davrida Samarqand davlat poytaxti bo‘lgandan keyin XIV asr oxiri – XV asrlarda Sharqning eng go‘zal shahri, Osiyoning yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi.



O‘rta asrlarda Samarqandda qad rostlagan eng muhim ilmiy obidalardan biri Ulug‘bek rasadxonasidir. U Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek tomonidan 1424–1428-yillarda qurilgan. Tarixchilarning yozishicha, Ulug‘bek yoshligidan astronomiyaga katta qiziqish bildirgan, rasadxona esa uning orzularidan biri bo‘lgan. Rasadxonaning ilmiy dasturi kamida 30 yilga mo‘ljallangan edi – bu Saturn sayyorasining Quyosh atrofida aylanishi davriga teng.

Ulug‘bek rasadxonasida faoliyat yuritgan buyuk olimlardan biri Ali Qushchi edi. U 1403-yilda Samarqandda tug‘ilgan bo‘lib, XV asrda mashhur matematik va astronom sifatida tanilgan. Ali Qushchi dastlab Samarqanddagi olimlardan diniy va asosiy bilimlarni olgan, so‘ngra Ulug‘bek hamda Qozizoda Rumiydan matematika va astronomiyani chuqur o‘rgangan. Ulug‘bek uni rasadxonaning bosh olimi qilib tayinlagan. Ali Qushchi ilm-fanga sadoqatli, zukko va mehnatkash olimlardan bo‘lib, uning ishlari bugungi kunda ham qadrlanadi.





O‘tmish tariximizda Samarqandda obodonchilik ishlarini amalga oshirgan hukmdorlardan biri – Yalangto‘sh Bahodir (1576–1656) bo‘lib, u o‘z davrida shahar ravnaqiga katta hissa qo‘shgan. U Nurota hokimi oilasida tug‘ilgan va yoshligidan harbiy ta’lim olgan. Yalangto‘sh Bahodir o‘zining jasorati va sadoqati bilan Buxoro xoni Abdullaxon II e’tiboriga tushgan. Uning nomi Registon maydonidagi Sherdor va Tillakori madrasalari bilan chambarchas bog‘liq.



Samarqandga kelgan sayyohlar shahar me’morchilik yodgorliklari bilan tanishganidan so‘ng, ko‘pincha yana bir muqaddas maskanga – Imom al-Buxoriy maqbarasiga borishni istaydilar. Bu ziyoratgoh, ayniqsa, musulmon mamlakatlaridan tashrif buyuruvchilar uchun muqaddas joydir. Chunki bu yerda o‘zining ilmiy xizmatlari bilan butun islom olamida mashhur bo‘lgan buyuk alloma Imom al-Buxoriy dafn etilgan.

Imom al-Buxoriy dafn etilgan joy – Chelak shahridagi Xartang qishlog‘i. Bu yerda Buxoro xoni Abdullaxon tomonidan qurilgan masjid ham saqlanib qolgan. Uzoq yillar davomida qarovsiz holatda bo‘lgan bu tabarruk joy 1974-yildan boshlab obodonlashtirila boshlandi. Chunki o‘sha yili Imom al-Buxoriy tavalludining 1200 yilligi nishonlanishi munosabati bilan dunyo musulmon olimlari bu maskanga tashrif buyurish istagini bildirganlar. Shu sababli maqbara atrofida katta obodonchilik ishlari amalga oshirildi.



Bugungi kunda Imom al-Buxoriy majmuasi O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi har bir mehmon uchun tabarruk ziyoratgoh, Samarqand esa o‘zining betakror tarixi, buyuk allomalari va go‘zal obidalari bilan jahon sivilizatsiyasi durdonasiga aylangan.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Samarqandda joylashgan tarixiy obidalardan birini tanlang va uni batafsil ta’riflab bering.

2. Samarqand shahriga tashrif buyurgan bo‘lsangiz, sizni eng ko‘p hayratga solgan majmua qaysi edi?

Nima uchun aynan o‘sha joy sizda unutilmas taassurot qoldirdi?

3. Samarqand nega “Sharq gavhari” deb ataladi?

Mulohazalaringizni asoslang.

3-MAVZU

DAVLAT BAYROG‘I TARIXI

O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan.

DARSNING MAQSADI


Ushbu dars orqali o‘quvchilarda bayroqning kelib chiqish tarixi, uning qadimiy jamiyatlardagi o‘rni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘ining yaratilish tarixi, ramzlari va ularning ma’nosi haqida to‘liq va aniq tasavvur shakllantiriladi.

Bayroq yaratish g‘oyasi, bundan ming yillar muqaddam qadimgi ovchilar va jangchilar orasida tug‘ilgan. Ular uzlarini dushmanlari ham, do‘stlari ham olisdan tanishlarini istaganlar: ayni paytda ular ham kim kelayotganligiga qarab o‘zlaricha tayyorgarlik ko‘rganlar, agar do‘stlari kelsa quchoq ochib kutib olsalar, dushmanlarni harbiy tayyorgarlik bilan qarshilaganlar. Shuning uchun ilk bayroqlar hayvonlarning terisidan yoki qushlar patidan yasalgan.

Qadimgi Misrda askarlar uzun xoda ko‘tarib yurganlar, ushbu xodaning tepasiga esa muayyan qushning yoki hayvonning, yo bo‘lmasa biror narsaning tasviri tushirilgan. Matodan tayyorlangan birinchi bayroqlar xitoyliklarda va hindlarda paydo bo‘lgan. Masalan, Xitoyda matodan tayyorlangan bayroqlar eramizdan avvalgi 1100-yillarda ham mavjud bo‘lgan deb hisoblanadi. Rim askarlari ham dastlab xodalarga o‘rnatilgan turli hayvonlarning tasvirini ko‘tarib yurishgan. Keyinchalik ularda ham matodan qilingan bayroqlar paydo bo‘lgan.

O‘rta asrlar mobaynida Yevropada ham bayroqlar keng tarqaldi. Diniy mazhab urushlari davrida salbchilarning ham o‘z bayroqlari bor edi. Qirol oilalari va aslzodalarning ham o‘z bayroqlari mavjud edi va bu bayroqlarda ular nasabining ramz va belgilari ifodalangan. Bundan kelib chiqadiki, ba’zi bir o‘lkalarda bayroqlar faqatgina davlatlar uchun emas, balki oilalar, sulolalar, guruhlar timsoli bo‘lib ham xizmat qilgan.

Bizning hududimizda ham bayroqlar juda qadim zamondan paydo bo‘lib, biz ularni qadimgi adabiy yodgorliklarda, tasviriy san’at asarlarida ko‘rishimiz mumkin.




Amir Temur davlati bayrog‘i

Sohibqiron Amir Temur saltanatida davlat tug‘i adolat, buyuk kuch-qudrat ramzi hisoblangan. “Temur tuzuklari”da qayd etilishicha, yov ustidan shijoat va mardlik ko‘rsatib g‘alaba qozongan amirlar hamda sipohiylarga davlat timsollari – tug‘ va nog‘ora in’om qilingan. Bu esa saltanat ramzlari nechog‘li baland maqom tutganidan dalolat beradi.

Davlat bayrog‘ida mamlakat tarixi, milliy qadriyatlari bilan bog‘liq muhim voqealar xususidagi turli ramziy suratlar aks ettirilgan. Hozirgi vaqtda davlat bayroqlarining bayoni barcha mamlakatlarda boshqa davlat ramzlari qatori qonun yo‘li bilan mustahkamlab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonuni mamlakatimiz mustaqillikka erishgach qabul qilingan dastlabki qonunlardan biri hisoblanadi. Mazkur qonun Davlat bayrog‘ining shakli va tuzilishi, uning maqomi, undan qayerlarda va qanday foydalanish tartiblarini belgilab bergan.



BU QIZIQ

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga nisbatan hurmatsiz munosabatda bo‘lishga, uning tasviri tushirilgan belgilardan yirtilgan, ifloslangan, teshilgan, holda foydalanish qonunan taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘idagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzini bildiradi. Timsollar tilida bu - yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo‘lib, u kun charog‘onligi va koinot yoritkichlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Oq rang – poklik, beg‘uborlik, soflikni, orzu va hayollar tozaligi, ichki go‘zallikka intilishning timsoli. Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi. U ko‘pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodmonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar – vujudimizda jo‘shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an’analarimiz bilan bog‘liq bo‘lib, ayni paytda u qo‘lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzi ham. Yulduzlar barcha davrlarda ilohiy timsol sanalgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an’analarimiz, qadimgi yilnomamizga bevosita aloqador bo‘lib, o‘zbek xalqi madaniyatining qadimiyligidan darak beradi, uni komillikka, o‘z tuprog‘ida saodatga intilish ramzi sifatida tushunish lozim.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sizningcha nima uchun har bir davlatning o‘z bayrog‘i bo‘lishi muhim?
2. Amir Temur davrida bayroq qanday ramz bo‘lgan?
3. O‘zbekiston bayrog‘ining ranglari orqali xalqimizning qanday qadriyatlari aks etadi?

4-MAVZU

BUXORO VILOYATI

Buxoro viloyati 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan.

DARSNING MAQSADI

O‘quvchilarda Buxoroning qadimiy tarixi, madaniyati va me’moriy yodgorliklari haqida tushuncha hosil qilish;

bu zamin yetishtirgan buyuk allomalar hayoti va merosi bilan tanishtirish;

Buxoroning “Islom dinining gumbazi” sifatidagi o‘rni va bugungi ahamiyatini anglashga o‘rgatish;

Vatan tarixiga hurmat, faxr va uni asrab-avaylash tuyg‘usini shakllantirish.

Buxoro – Markaziy Osiyoning eng qadimiy, eng go‘zal va tarixiy shaharlaridan biridir. Uning yoshi bugungi kunda 2500 yil deb belgilangan. Bu holat Buxoroning nafaqat O‘zbekiston, balki butun insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi qadimiy markazlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Tarix sahifalarida qayd etilishicha, miloddan avvalgi VI asrda bu hududni fors shohi Kir bosib olgan. Keyinchalik Aleksandr Makedonskiy bu yerlarga kelganida, Buxoro allaqachon mustahkam shahar bo‘lib, unda Ark qal’asi va oltmishdan ortiq karvonsaroylar faoliyat yuritgan. Bu holat o‘sha davrda Buxoroning yirik savdo markazi sifatida shakllanganini bildiradi – u Hindiston, Xitoy va boshqa Sharq mamlakatlarini bog‘lab turgan qadimiy savdo yo‘llarining chorrahasida joylashgan edi.



Buxoro dastlab Kushon podsholigi tarkibiga kirgan, so‘ng Eftaliylar davlati, keyinchalik esa Turk xoqonligi tasarrufiga o‘tgan. VIII asr boshlarida esa arablar bu yurtni zabt etib, yangi din – Islomni olib kirganlar. Shu davrdan boshlab Buxoro Islom olamining muhim diniy markaziga aylangan. O‘rta asrlarda u “Qubbat ul-Islom”, ya’ni “Islom dinining gumbazi” deb atalgan. Bu nom Buxoroning diniy-ma’naviy hayotdagi beqiyos o‘rni va nufuzini ifodalaydi. Shu davrda yuzlab madrasalar, kutubxonalar, masjidlar faoliyat ko‘rsatgan, minglab talabalar ilm olgan.

IX asrda Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro davlat poytaxtiga aylantirildi. Bu davr shahar iqtisodiy, madaniy va ilmiy jihatdan yuksalgan, Buxoro o‘z davrining eng yirik ilm-ma’rifat markaziga aylangan davr bo‘ldi. Tarixchi Narshaxiy Buxoro nomini birinchi bo‘lib IX asrda tilga olgan. Uning yozishicha, “Buxoro” so‘zi qadimgi sanskrit tilidagi “vixara” – ya’ni, “qal’a, ibodat maskani” so‘zidan kelib chiqqan. Qadimda bu shahar Numijkat va Faxira deb ham yuritilgan.



Buxoro nafaqat tarix, balki madaniyat, me’morchilik va san’at markazi hamdir. Bu yerda yaratilgan boy me’moriy obidalar – Ark qal’asi, Kalon masjidi, Mir Arab madrasasi, Chor Minor, Ulug‘bek madrasasi va boshqa inshootlar o‘rta asr me’morchiligining betakror namunalaridir. Ayniqsa, 1417-yilda G‘ijduvon shahrida qurib bitkazilgan Ulug‘bek madrasasi o‘sha davrda ilm-fanning markaziga aylangan. Bu esa Buxoro zaminining o‘rta asr ilmiy hayotida tutgan o‘rnini yanada mustahkamlagan.

BU QIZIQ


Buxoroda joylashgan yetti pir – Abduxoliq G‘ijduvoniy, Muhammad Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband – me’moriy majmualari nafaqat yurtdoshlarimiz, balki butun dunyo musulmonlari uchun tabarruk maskan hisoblanadi.

Bugungi kunda Buxoro ko‘pincha “ochiq osmon ostidagi muzey” deb ataladi. Bu ta’rif bejiz emas, chunki bu shaharda har bir tosh, har bir g‘ishtda asrlar nafasi, o‘tmish hikmati mujassamdir.

Bu zaminda Imom Buxoriy, Ibn Sino, Narshaxiy, Naqshbandiy, G‘ijduvoniy kabi buyuk allomalar voyaga yetgan, ularning nomi bilan Buxoro butun dunyoga tanilgan. Haqiqatan ham, Buxoro zaminidan dunyoga dong‘i ketgan buyuk allomalar yetishib chiqqan.



Imom Buxoriy (810–870) – hadis ilmining sultoni, “Al-jome’ as-sahih” asari bilan butun islom olamida e’tirof etilgan buyuk muhaddis.



Abu Ali Ibn Sino (980–1037) – ulug‘ tabib, faylasuf va mutafakkir. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan bo‘lib, “Tib qonunlari” asari asrlar davomida Yevropa va Sharq tibbiyotining asosiy manbasi bo‘lib xizmat qilgan.



Abdurauf Fitrat (1886–1938) – XX asr boshidagi jadidchilik harakati yetakchilaridan biri bo‘lib, Buxoroning ilmiy va madaniy hayotiga yangicha ruh olib kirgan.

Buxoro nafaqat musulmon dunyosida, balki butun insoniyat sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Bu yer qadimdan bag‘rikenglik va do‘stlik maskani bo‘lgan – nasoro va yahudiylar, turli millat va din vakillari bu shaharda o‘zaro ahil yashaganlar. XV asrda esa buxorolik sarrof (pul almashtiruvchi)lar 20 dan ortiq davlat pul birliklarini almashish bilan shug‘ullanganlar. Bu esa Buxoroning xalqaro savdo va moliya markazi sifatidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ham Buxoro o‘zining tarixiy qiyofasini asrab, yanada go‘zal shahar sifatida rivojlanmoqda. Mustaqillik yillarida qadimiy madrasalar, masjidlar, maqbaralar qayta ta’mirlanib, ularga yangi hayot baxsh etildi. Mir Arab madrasasi yana oliy diniy ta’lim maskaniga aylantirildi. Har bir g‘ishtida o‘tgan asrlarning nafasi mujassam bo‘lgan bu shahar xalqimizning tarixiy xotirasi, ilm va ma’naviyatning abadiy ramzidir.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Nega Buxoro “Islom dinining gumbazi” deb atalgan?
2. Somoniylar davrida Buxoro qanday o‘zgarishlarga uchradi?
3. Buxoroda yetishgan allomalar kimlar va ular nima bilan mashhur?
4. Bugungi kunda Buxoro qanday ahamiyatga ega shahar hisoblanadi?

5-MAVZU


XORAZM VILOYATI VA QUYI AMUDARYO HUDUDI

Xorazm viloyati 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan.

DARSNING MAQSADI

O‘quvchilarda Xorazmning qadimiy tarixi, madaniyati, allomalari va Vatan himoyachilarining jasorati haqida tushuncha hosil qilish, milliy faxr va Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish.

Miloddan avvalgi VIII asrda xorazmliklar tomonidan Markaziy Osiyodagi eng qadimiy davlatlardan biri – Xorazm davlati tashkil etilgan. Bu yurt o‘zining qadimiy tarixi, boy madaniyati va buyuk allomalari bilan butun dunyoga mashhur. Qadim zamonlarda bu yerda massagetlar, saklar, apasaklar, oslar, daxlar va boshqa qabilalar yashagan. Ularning barchasi Xorazm madaniyatining shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shgan.



Xorazm so‘zi ilk bor zardushtiylarning muqaddas kitobi – “Avesto”da tilga olingan. Olimlarning fikricha, qadimgi xorazm tilidan tarjima qilinganda “Xorazm” so‘zi “pastlikdagi yer” yoki “oziq-ovqatli yer” degan ma’nolarni bildiradi. Bu esa Xorazmning serhosil, obod o‘lka bo‘lganini ko‘rsatadi.

“Avesto” zardusht diniga e’tiqod qiluvchilar uchun muqaddas kitob hisoblanadi. Unda yaxshilik, poklik va adolatga chaqiruvchi g‘oyalar ilgari surilgan. Bu kitobda yagona Tangriga e’tiqod qilish, ezgulik va yomonlik o‘rtasidagi kurash haqida so‘z yuritiladi. Olimlar “Avesto”dagi joy nomlariga (Varaxsha, Vaxsh) asoslanib, bu asar Amudaryo sohillarida, ya’ni hozirgi Xorazm hududida yaratilgan degan xulosaga kelganlar. Shu bois, “Avesto”ning vatani – Xorazm deb hisoblanadi.

BU QIZIQ

Xiva shahrida 64 ta madrasa mavjud bo‘lib, shular ichida eng yirigi va chiroylisi Xiva xoni Muhammad Aminxon tomonidan qurilgan madrasa hisoblanadi. Madrasa Ichan qal’aning g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, shaharning bosh darvozasi Ota darvozadan kirib kelganda, o‘ng tomonda joylashgan. Bu me’morchilik obidasi o‘z davriga xos uslubda katta va hashamatli qilib qurilgan. Madrasa pishiq g‘ishtdan qurilib, uning devorlari qalinligi 1,5 metrga yetadi.



Xiva shahri – Xorazmning qadimiy shahri hisoblanadi. Arxeologik topilmalarga ko‘ra, u miloddan avvalgi V asrda bunyod etilgan. Shahar nomi uning eng qadimiy qismi – Xivaq (Xeyvaq) qudug‘i nomi bilan bog‘liq. Asrlar davomida Xiva savdo, hunarmandchilik va madaniyat markaziga aylangan. Bugungi kunda esa u o‘zining tarixiy obidalari bilan butun dunyo sayyohlarini o‘ziga jalb etmoqda.

Xorazmshohlar davlati XII asrda O‘rta Osiyoda qudratli davlat sifatida shakllandi. Bu davlat o‘zining eng gullab-yashnagan davriga XIII asr boshlarida, Alauddin Muhammad II hukmronligi davrida erishdi. Ammo bu buyuk saltanat uzoqqa cho‘zilmadi – mo‘g‘ullar bosqini natijasida Xorazmshohlar davlati qulab tushdi.

Shunga qaramay, bu yurt ko‘plab buyuk sarkardalar, olimlar va avliyolarni yetishtirgan.



Jaloliddin Manguberdi (1199–1231) – ulug‘ sarkarda va Vatan himoyachisi bo‘lgan. Jaloliddin o‘zining jasorati, aql-zakovati va qat’iyati bilan butun xalqning muhabbatini qozongan. U mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi mardonavor kurash olib borgan. Uning eng mashhur janglaridan biri Sind daryosi bo‘yidagi jang bo‘lib, unda u kam sonli qo‘shin bilan katta mo‘g‘ul lashkariga qarshi chiqqan. Jaloliddin Manguberdi Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jonini fido qilgan. Shu sababli xalq orasida u Vatan qahramoni sifatida hurmat bilan eslanadi.



Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (taxminan 783–850) – dunyoga mashhur olim, matematik, astronom va geograf. U “Al-jabr va al-muqobala” nomli kitob yozgan bo‘lib, bu asar orqali “algebra” so‘zi paydo bo‘lgan. Xorazmiy birinchi bo‘lib 0 (nol) raqamidan foydalangan va o‘nlik hisob tizimini yaratgan. U yaratgan ilmiy usullar bugungi zamonaviy matematika va texnologiyaning asosiga aylangan. Hatto “algoritm” so‘zi ham uning nomidan olingan. Muhammad al-Xorazmiy o‘z ilmiy ishlari bilan butun dunyo ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan.



Abu Rayhon Beruniy (973–1048) – buyuk olim, tarixchi, geograf va astronom. U Xorazmning qadimiy poytaxti Kat shahrida tug‘ilgan. Beruniy juda bilimdon, mehnatsevar va ilmga chanqoq inson bo‘lgan. U Quyosh, Oy, Yer harakati haqida to‘g‘ri ilmiy fikrlar aytgan. Shuningdek, turli xalqlarning urf-odatlari va madaniyatini o‘rganib, ularni ilmiy tarzda yozib qoldirgan. Uning eng mashhur asarlari “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Hindiston” kitoblaridir. U o‘z hayotini butunlay ilmga bag‘ishlagan va insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan.



Najmiddin Kubro (1145–1221) mashhur avliyo, so‘fiy va ulamolar rahnamosi bo‘lgan. U Xorazmning Ko‘hna Urganch shahrida tug‘ilgan. Najmiddin Kubro Kubroviya tariqatining asoschisi bo‘lib, u insonlarni halollikka, poklikka, ezgulik va sabr-toqatga da’vat etgan. Mo‘g‘ullar Xorazmga bostirib kirgan paytda u ham xalq bilan birga Vatanini himoya qilish uchun jangga chiqqan va shu jangda shahid bo‘lgan. Xalq uni “Vatan va din himoyachisi” sifatida yod etadi.

Xorazm o‘z tarixida nafaqat qudratli davlat bo‘lgan, balki butun dunyo ilm-fani va madaniyatining rivojiga hissa qo‘shgan yurt sifatida ham mashhurdir. Bu yurtning farzandlari jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirganlar.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Nima uchun Xorazm Markaziy Osiyodagi eng qadimiy davlatlardan biri hisoblanadi?
2. Muhammad al-Xorazmiyning ilm-fanga qo‘shgan hissasini izohlab bering.
3. Mavzu matnida tilga olingan barcha shaxslar orasidagi o‘xshashlik va farqlari haqida fikr yuriting.

6- MAVZU

NAVOIY VILOYATI

Navoiy viloyati 1982-yil 20-aprelda tashkil etilgan.

DARSNING MAQSADI

O‘quvchilarga Navoiy viloyatining tashkil topishi, qadimiy tarixi, madaniy yodgorliklari, tabiiy boyliklari va bu yurt yetishtirgan allomalar haqida ma‘lumot berish, ularda milliy faxr va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish.

Navoiy viloyati – O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan. Bu viloyat 1982-yilda tashkil topgan bo‘lib, uning nomi buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy nomi bilan atalgan. Navoiy viloyati o‘zining qadimiy tarixi, boy madaniyati va tabiiy boyliklari bilan mashhur. Bu yerdagi ilk odamlar juda qadim zamonlarda yashaganlar.

Navoiy hududi qadimgi Sog‘diyona va Baqtriya madaniyati ta’sirida rivojlangan. Bu o‘lkada joylashgan Karmana va Nurota shaharlari eng qadimgi aholi punktlaridan hisoblanadi. Karmana bir vaqtlar Buxoro amirligining muhim markazi bo‘lgan. Nurota esa tog‘li hududda joylashgan bo‘lib, o‘zining qal’asi va tabiiy buloqlari bilan mashhur.

Navoiy viloyati “O‘zbekistonning yerosti oltin xazinasi” deb bejiz aytilmaydi. Bu yerda mamlakatimizdagi eng yirik konlar – Muruntov, Zarafshon, Uchquduq joylashgan bo‘lib, ulardan oltin, uran va boshqa qimmatbaho metallar qazib olinadi.

Arxeologiya yodgorliklari

Navoiy viloyati arxeologik yodgorliklarga boy. Ular orqali o‘tmishdagi hayot, insonlar faoliyati va madaniyati haqida ko‘p narsa bilish mumkin.

Bu joy Navoiy viloyatining Navbahor tumanida joylashgan. Bu yerda minglab yillar avval toshlarga chizilgan rasmlar – petrogliflar saqlanib qolgan. Rasmlarda hayvonlar, odamlar, ov sahnalari tasvirlangan. Ular orqali biz ajdodlarimizning hayoti, mehnati va dunyoqarashi haqida ma’lumot olamiz.



Nurota shahrida joylashgan bu qal'a mil. avv. IV asrlarda Aleksandr Makedonskiy davrida qurilgan deb hisoblanadi. Qal'a tosh va g'ishtdan qurilgan bo'lib, hozirgacha ayrim devor qismi saqlab qolingan. Shuningdek, Nurota shahri o'zining Chashma bulog'i va musulmon ziyoratgohlari bilan ham mashhur.

Tarixiy imoratlar

Navoiy viloyatida ko'plab tarixiy binolar va muqaddas ziyoratgohlar mavjud. Ular xalqimiz ma'naviy merosining muhim qismi hisoblanadi.



Qosimshayx maqbarasi. Bu maqbara Karmanada joylashgan. U yerda mashhur avliyo Qosim Shayx Azizon dafn etilgan. Bu joy ziyoratgoh sifatida e'zozlanadi.



Mirsaid Bahrom madrasasi ham Karmanada joylashgan bo'lib, me'morchilik uslubi jihatdan go'zal binolardan hisoblanadi. Unda bezakli go'rxona, hunarmandlar ishlari saqlanib kelgan.



Raboti Malik. Bu qadimiy karvonsaroy IX–XII asrlarda Ipak yo'lida qurilgan. Bu yerda savdogarlar to'xtab dam olganlar.



Sardoba – suvni to'plab saqlash uchun qurilgan katta bino. Raboti Malik yonidagi Malik sardobasi eng mashhurlaridan biri. U me'morchilikning go'zal namunasi hisoblanadi.



Mavlono Orif Deggaroniy majmuasi Navoiy viloyati Karmana tumanidagi Hazora qishlog'ida joylashgan bo'lib, u mashhur tasavvuf arbobi Mavlono Orif Deggaroniy nomi bilan atalgan. Bu yer ziyoratgoh sifatida saqlanib kelinmoqda.

Navoiy viloyati ko‘plab bilimdon va fozil shaxslarni yetishtirgan

Mavlono Orif Deggaroniy – mashhur tasavvuf arbobi, diniy olim, xalqni ezgulik va ma’-rifatga chorlagan zot.

Qosim Shayx Azizon – Karmana shahrida yashab o‘tgan ma’rifatparvar shayx, u o‘zi-ga xos ta’lim maktabini yaratgan.

Abu Abdulloh Muhammad Karminiy va Abu Hamid Ahmad Karminiy ilm ahllari bo‘lib, islom fanlarini o‘rganishga katta hissa qo‘shganlar.

Muntasir Karminiy mashhur olim va ziyoli inson bo‘lgan. Bu buyuk shaxslar orqali Navoiy zamini faqat tabiiy boyliklari bilan emas, balki ilm va ma’rifat bilan ham mashhur ekanini ko‘ramiz.

Navoiy viloyatining rivojlanishida sanoatning ham ahamiyati katta.

1958-yili Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) tashkil etilgan. Bu korxona dunyodagi eng yirik oltin ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. NKMK mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Navoiy viloyati kimning nomi bilan atalgan va u kim bo‘lgan?
2. Qaysi tarixiy binolar Navoiy viloyatida joylashgan?
3. Nima uchun Navoiy viloyati O‘zbekiston uchun muhim hududlardan biri hisoblanadi?



7- MAVZU

BOSH TUZUGIMIZ TARIXI

1992-yil 8-dekabrda Konstitutsiyamiz qabul qilingan.

DARSNING MAQSADI

O‘quvchilarda qonun va qoidalarning jamiyatdagi o‘rni, Konstitutsiyaning mazmuni hamda uning yaratilish tarixi haqida tushuncha hosil qilish, O‘zbekiston Konstitutsiyasining ahamiyati va unda belgilangan inson huquqi hamda fuqarolik burchlarini anglash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Qonun bu – davlat tomonidan qabul qilingan, barcha fuqarolar bajarishi shart bo‘lgan rasmiy hujjat bo‘lib, jamiyatda tartib va adolatni ta’minlaydi.

Qoida esa – muayyan sohada yoki joyda bajarilishi lozim bo‘lgan tartib va talablarni belgilaydigan yo‘riqnoma.

Qonun va qoidalarning zarurati shundaki, ularsiz jamiyatda tartibsizlik, nohaqlik yuzaga kelishi mumkin. Qonunlar inson huquqlarini himoya qiladi, fuqarolarning burch va mas’uliyatini belgilaydi.

BU QIZIQ

“**Kanon**” so‘zi qadimgi yunon tilida “o‘lchov tayoqchasi”, “me’yor”, “qoida”, “tartib” degan ma’nolarni bildirgan. Keyinchalik bu so‘z “me’yorni belgilovchi qoidalar majmuasi”, ya’ni “**qonun**” ma’nosini olgan. O‘rta asrlarda “qonun” so‘zi Markaziy Osiyo, shu jumladan, O‘zbekiston hududida ham ishlatila boshlangan.



Ajdodlarimiz eng qadim zamonlardanoq qonunlar asosida hayot kechirgan. Masalan:

Qadimgi turkiy tuzuklar turkiy xalqlar davlat boshqaruvi, harbiy intizom, odob va jazo tizimini belgilab bergan qonunlar majmuasi bo‘lgan.

“Temur tuzuklari” Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan davlat boshqaruvi, harbiy intizom va adolat qonunlarini o‘z ichiga olgan qomusiy asar hisoblanadi. Unda podshohning burchi, xalqqa munosabati, qo‘shin intizomi va adolatning ahamiyati yoritilgan.



“Konstitutsiya” so‘zi lotincha “constitutio” so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma’nosi – “tuzilish”, “asos”, “bunyod”, “tashkil etish” degani.

Konstitutsiya – davlatning Bosh qonuni bo‘lib, u jamiyat va davlat tuzilishi, insonning huquq va erkinliklari, fuqarolarning burchlari hamda davlat organlari faoliyatini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, yangi davlatning huquqiy poydevorini yaratish zarurati tug‘ildi. Shu maqsadda 1990–1992-yillarda Konstitutsiya loyihasi ustida maxsus komissiya ish olib bordi.

Komissiya tarkibiga huquqshunoslar, olimlar, deputatlar va jamoat vakillari kirgan. Uch yillik muhokama va takliflardan so‘ng, 1992-yil 8-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Bu hujjat mustaqil O‘zbekistonning demokratik, huquqiy va insonparvar davlat ekanini rasman belgilab berdi. Shu kun mamlakatimizda “Konstitutsiya kuni” sifatida nishonlanadi.

2023-yil 30-aprelda referendum orqali O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilindi.

Bu yangilangan Konstitutsiyada xalq manfaatlarini, inson qadrini va fuqarolar huquqlarini yanada kuchliroq himoya qilishga qaratilgan qator o‘zgartishlar kiritildi.



Konstitutsiyada inson huquq va burchlari haqida

26-modda



Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

50-modda



Har kim ta’lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi.

61-modda



Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart.

Tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

64-modda



O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar.

80-modda



Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qonun va qoidalar bo‘lmasa, jamiyat hayotida qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin deb o‘ylaysiz?

2. Konstitutsiyada belgilangan inson huquqlari va burchlari orasida siz uchun eng qadrlisi qaysi va nima sababdan?

8- MAVZU

DAVLAT MADHIYASI TARIXI

Davlat madhiyasi – millat qo‘shig‘i.

DARSNING MAQSADI

O‘quvchilarda madhiya tushunchasi, uning yaratilish tarixi va mazmuni haqida tushuncha hosil qilish, Vatanga muhabbat va faxr tuyg‘usini shakllantirish.

Madhiya bu – davlatning hurmati, g‘ururi va birligini ifodalovchi qo‘shiq yoki musiqiy asardir. Unda Vatanga bo‘lgan muhabbat, elning fidoyiligi, ajdodlar merosi va kelajakka ishonch kabi tuyg‘ular jo etiladi.

Madhiya har bir xalq uchun iftixor va yurtga sadoqat ramzi hisoblanadi

Dunyoda davlat madhiyasiga ehtiyoj milliy davlatlar shakllana boshlagan davrda, ya’ni xalq o‘z mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishga kirishgan vaqtda paydo bo‘lgan.

Har bir mustaqil davlat o‘z madhiyasi orqali:

- o‘zining mustaqilligini e’lon qiladi;
- xalqini birlashtiradi;
- Vatanga muhabbat va fidoyilik ruhini targ‘ib qiladi.

Shu sababli bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlari o‘z madhiyasiga ega.

BU QIZIQ

Ba’zi mamlakatlarda madhiyalar g‘ayrioddiy

- Ispaniyada davlat madhiyasi so‘zsiz – faqat musiqa!
- Yaponiya madhiyasi esa dunyodagi eng qisqa madhiyalardan biri (atigi 4 satr).
- Gretsiya madhiyasi esa eng uzuni – 158 band (1 band – 4 satr)dan iborat, lekin odatda faqat 2 bandi kuylanadi.

Bir paytlar, o‘z mustaqilligini endigina qo‘lga kiritgan O‘zbekiston o‘zining milliy ramzlarini yaratishga kirishdi. Hech bir davlat bayroq, gerb va, albatta, madhiyasiz bo‘lishi mumkin emas edi. Chunki madhiyada xalqning yuragi, g‘ururi va orzulari aks etadi.

Shu sababli 1991-yilda mustaqil O‘zbekiston madhiyasini yaratish ishlari boshlandi. Mutaxassislar Mutal Burhonov bastalagan kuyni tanlashdi. Undagi mag‘rurlik ruhi va yoqimli ohang bayram va tantanalarga mos deb hisoblandi.

Endi unga yangi so‘z kerak edi. Shu paytda buyuk shoirimiz Abdulla Oripov o‘z yuragini, mehrini, orzu-umidlarini satrlarga soldi. U Vatanga muhabbatni, ajdodlar ruhi va xalq g‘ururini his ettiruvchi she’r yozdi. Shoirning so‘zlari bilan Burhonovning musiqasi qo‘shilganda – haqiqiy mo‘jiza paydo bo‘ldi!

1992-yil 10-dekabr kuni bu madhiyamiz O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi sifatida qabul qilindi. O‘sha kuni Oliy Kengashda barcha tik turib, madhiyani birinchi marta birgalikda kuylashdi. Zal ichida faxr, baxt va hayajon to‘lqinlari taraldi:

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqarot:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

Naqarot:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Madhiya nima va u nima uchun kerak?
2. O‘zbekiston davlat madhiyasining mualliflari kimlar?
3. O‘zbekiston madhiyasi qachon qabul qilingan?
4. Nega madhiyani kuylaganda bizda faxr va g‘urur tuyg‘usi paydo bo‘ladi?

9-MAVZU

QASHQADARYO VILOYATI

Qashqadaryo viloyati 1943-yil 20-yanvar kuni tashkil etilgan.

DARSNING MAQSADI

O‘quvchilarda Qashqadaryo viloyatining tashkil topishi, qadimiy tarixi, madaniy va me’moriy yodgorliklari, shuningdek bu zamindan yetishib chiqqan buyuk allomalar – Amir Temur, Abulmuin Nasafiy, Abdulla Oripov kabi siymolarning hayoti va faoliyati haqida tushuncha hosil qilish, ularning Vatanga sadoqat, ilm va ezgulikka chorlovchi merosi orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish.

Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonning janubiy qismida joylashgan, tarixiy va madaniy boy o‘lkalardan biridir. Bu voha qadimdan ilm-fan, savdo, madaniyat va hunarmandchilik rivojlangan hudud sifatida tanilgan. Qashqadaryoning tarixi bundan ming yillar avvalgi davrlarga borib taqaladi. Bu nom viloyatdan oqib o‘tuvchi Qashqadaryo daryosi nomidan olingan.

BU QIZIQ

Qashqadaryo mintaqasi ob-havosi ekologik jihatdan eng toza bo‘lgan vohaning sara manzillardan biridir. “Qashqadaryo” nomidan bir necha mazmunlar kelib chiqadi. Jumladan, “qumda yo‘qolayotgan daryo” va “shaffof va toza daryo” ma’nolarni anglatadi.

Qarshi va Shahrisabz shaharlari O‘zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan hisoblanadi. Ularning yoshi taxminan 2700 yil atrofida.

Shahrisabz – buyuk sarkarda Amir Temurning tug‘ilgan shahri. Bu shahar asrlar davomida Markaziy Osiyoning siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Qashqadaryo zaminida qadimiy tarixni o‘zida saqlab qolgan ko‘plab arxeologik joylar mavjud.



Sangirtepa – Sangirtepa yodgorliklari Qashqadaryo o’rta oqimidagi Sho‘rob daryosi bo’yida joylashgan. Sangirtepaning umumiy maydoni 3 gektardan iborat bo‘lib, uning janubiy va g‘arbiy tomonlarida mudofaa devorlari bo’lgan. Yodgorlikning ko‘p qismi keyingi davrlarda dehqonchilik qilish uchun tekislanib yuborilgan. Tadqiqotlar natijasida u yerdan 6,85 metrga teng madaniy qatlam ochilib, 4 ta qurilish davri aniqlangan. Sangirtepaning ilk shakllangan davri mil. avv. IX–VIII asrlar hisoblanadi.





Uzunqir yodgorligi Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan. U mil. avv. VIII–VII asrlarda kichik manzilgoh sifatida shakllanib, mil. avv. VII–VI asrlarda 70 gektar maydonni egallagan vohaning ma’muriy markaziga aylangan. Hozirgi paytda mudofaa devorining bir qismi saqlanib qolgan.

Zahhoki Moron Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri temir yo‘l stansiyasi yaqinida joylashgan qadimiy qal’a-shahar xarobasi hisoblanadi. Zahhoki Moron o‘rnida aholi punkti miloddan avvalgi II asrda paydo bo‘lganligi aniqlandi. Zahhoki Moron o‘rnida joylashgan shahar qariyb yetti asr davomida Quyi Qashqadaryoning siyosiy markazi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 562–564-yillarda eftaliylarning boshqa shaharlari kabi turk – sosoniy ittifoqi va eftaliylar davlati o‘rtasidagi urush natijasida shahar butunlay vayron bo‘lgan.



Qashqadaryo viloyati me’moriy yodgorliklarga ham boy. Ularning har biri o‘z davrining san’at va madaniyat darajasini namoyon etadi.

Oqsaroy – Amir Temur tomonidan Shahrisabzda qurilgan saroy. Bu saroy Temuriylar davri me’morchiligining yorqin namunasi.



Dorus saodat va Dorut tilovat majmualari – Temuriylar sulolasiga mansub zodagonlar dafn etilgan muqaddas joylar.

Ko‘kgumbaz masjidi – go‘zal me’moriy inshoot bo‘lib, Husayn Boyqaro davrida barpo etilgan.

Abdullaxon ko‘prigi – qadimiy davrda qurilgan, hanuzgacha saqlanib qolgan tarixiy ko‘prik.

Qashqadaryo o‘lkasi ko‘plab buyuk insonlarni yetishtirgan. Ular ilm, adabiyot va davlat boshqaruvida katta iz qoldirganlar.

Amir Temur 1336-yilda Shahrisabz shahri (hozirgi Yakkabog‘ tumanidagi Xo‘jailg‘or qishlog‘i)da tug‘ilgan. U yoshligidan zukko, jasur va mehnatsevar bo‘lgan. Temur keyinchalik buyuk sarkarda, davlat arbobi va adolatli hukmdor sifatida tanilgan. U ko‘plab davlatlarni birlashtirib, ulkan Temuriylar saltanatini barpo etgan. Amir Temur ilm-fan, madaniyat va me’morchilikka katta ahamiyat bergan. Uning davrida Samarqand va Shahrisabz chiroyli binolar bilan bezatilgan. Shahrisabzdagi Oqsaroy, Dorut-Tilovat va Dorut-Saodat majmualari uning nomi bilan bog‘liq. Amir Temurning “Kuch – adolatdadir” degan mashhur so‘zi hozirgacha xalqimiz orasida ibrat bo‘lib kelmoqda.



Abulmuin Nasafiy Qarshi shahri yaqinida tug‘ilgan. U o‘z davrining mashhur olimi va yozuvchisi bo‘lgan. Nasafiy ko‘plab diniy, axloqiy va falsafiy asarlar yozgan. Uning asarlarida insonning halol yashashi, sabrli va to‘g‘ri bo‘lishi, boshqalarga yaxshilik qilish g‘oyalari ilgari surilgan. Abulmuin Nasafiy yoshlarni ilm o‘rganishga, bilimli va odobli bo‘lishga chaqirgan. Bugungi kunda ko‘plab ko‘cha va maktablar uning nomi bilan ataladi.



Abdulla Oripov – Qashqadaryoning faxrli farzandi, butun O‘zbekistonning sevimli shoiri. U Koson tumanida tug‘ilgan. Bolaligidan she’r yozishga qiziqqan.

Abdulla Oripov o‘z she’rlarida Vatan, ona yurt, erkinlik, mehr-oqibat haqida yozgan.

Uning eng mashhur asarlaridan biri – O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi so‘zlari. U “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”, “Yurtim shamoli”, “Ona yurtim” kabi mashhur she’rlar muallifi. Abdulla Oripov o‘z asarlari bilan yoshlarga Vatanga muhabbat, halollik va insoniylikni o‘rgatadi.

Qashqadaryoda shuningdek tasavvuf oriflaridan Shayx Shamsiddin Kulol, Sayid Ahmad Vasliy va tarixiy shaxs Abu Hafs Nasafiy kabi ulug‘ insonlar ham yashab ijod qilganlar. Ularning barchasi o‘z davrida xalqni ilmga, adolatga va ezgulikka chaqirganlar.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qashqadaryo viloyati qayerda joylashgan?
2. Nega bu viloyat “Qashqadaryo” deb ataladi?
3. Sizga qaysi atoqli shaxs yoqadi? Nega aynan u?

10-MAVZU

SURXONDARYO VILOYATI

Surxondaryo viloyati 1941-yil 6-martda tashkil etilgan.

DARSNING MAQSADI

O‘quvchilarda Navoiy viloyatining tashkil topishi, qadimiy tarixi, madaniy yodgorliklari, tabiiy boyliklari va bu yurt yetishtirgan allomalar haqida tushuncha hosil qilish, milliy faxr va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish.

Surxandaryo O‘zbekistonning eng janubiy va eng qadimiy tarixga ega hududlaridan biridir. Bu zamin insoniyat tarixining ilk sahifalaridan boshlab madaniyat, ilm-fan va ma’naviyat markazi sifatida tanilgan.

BU QIZIQ

Surxondaryo vodiysi atrofidagi tuproqlar qizg‘ish, surx (qirmizi rangga yaqin) rangda bo‘ladi. Bahor va yoz oylarida daryo toshganda, shu qizg‘ish tuproq suv bilan qo‘shilib oqadi – suv rangi surx tusga kiradi. Shuning uchun daryoga Surxon (Surxan) nomi berilgan.

Hududning markazi hisoblangan Termiz shahri 2500 yillik tarixga ega. Termiz qadimdan Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtasi bo‘lib, savdo, hunarmandchilik va madaniy almashinuv markaziga aylangan.

Arxeologik yodgorliklar sifatida saqlanib qolan Teshiktosh g‘ori, Sopollitepa, Jarqo‘ton va Dalvarzintepalarda ibtidoiy insonlar yashagan va ilk dehqonchilik va shahar madaniyati shakllangan. Ayniqsa, Zarautsoy qoya toshlari va Temir darvoza singari manzillar bu hududning qadimiy san’at va tarixiy yo‘l-aloqalar markazi bo‘lganini tasdiqlaydi.



Surxondaryo nafaqat moddiy, balki ma’naviy merosi bilan ham ajralib turadi. Bu zamin o‘z davrining buyuk allomalarini yetishtirgan. **Hakim Termiziy** – bu zaminning ma’naviy timsoli bo‘lib, u inson ruhiyati, axloq va tasavvuf haqida chuqur fikrlar bildirgan. Uning ta’limoti Surxondaryo xalqining ichki dunyosida halollik, poklik va sabr fazilatlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutgan.





Abu Iso Termiziy esa hadis ilmi sohasida dunyoga tanilgan alloma bo‘lib, u Termiz ilmiy muhitining qanchalik yuksak darajada bo‘lganini ko‘rsatadi. U yaratgan “Al-Jome as-sahih” asari nafaqat Islom dunyosida, balki butun insoniyat ma’naviy merosida muhim o‘rin egallaydi.

Shuningdek, **Xoja Samandar Termiziy** kabi so‘fiylar bu yurtda tasavvuf maktabining shakllanishida bevosita rol o‘ynagan. Ularning faoliyati Surxondaryoni nafaqat tarixiy, balki ruhiy-ma’naviy markaz sifatida ham yuksaltirgan.



Bugungi kunda Hakim Termiziy maqbarasi, Abu Iso Termiziy maqbarasi, Jarqo‘rg‘on minorasi, Sulton Saodat majmuasi kabi obidalar o‘tmish shon-shuhratini eslatib turadi. Ular nafaqat tarixiy yodgorlik, balki Surxondaryo xalqining ma’naviy ildizlari va faxridir.

Shunday qilib, Surxondaryo – insoniyat qadimiy izlari, ilm va ruhiyat uyg‘unligining timsoli bo‘lgan maskan. Bu yurtning tabiati, yodgorliklari va allomalari xalqimiz tarixidagi buyuk merosning ajralmas qismidir.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Surxondaryo nega O‘zbekistonning eng qadimiy o‘lkasi hisoblanadi?
2. “Surxondaryo” nomi nimani anglatadi?
3. Hakim Termiziy va Abu Iso Termiziyning xalq hayotidagi o‘rni qanday?
4. Surxondaryodagi qadimiy yodgorliklar bizga nimani eslatadi?

11- MAVZU

JIZZAX VA SIRDARYO VILOYATI

Kun maqoli: “Davlati bor elning savlati bor.” (Shu yerda o‘qituvchi o‘quvchilarni maqolning mazmuni ustida o‘ylashga, ya’ni uning ma’nosini tushunishga undaydi)

DARSNING MAQSADI

O‘quvchilarda Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining tashkil topishi, ularning qadimiy tarixi, madaniy merosi va atoqli siymolari haqida bilim, tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish.

O‘quvchilarni Qaliyatepa, Xovostepa, Qiziltepa, Nurtepa, Xonbandi, Yog‘ochli sardoba kabi arxeologik yodgorliklarning tarixiy ahamiyati bilan tanishtirish, ularning xalqimiz madaniy hayotidagi o‘rnini anglatish.

Shuningdek, Halima Xudoyberdiyeva, To‘ra Sulaymon, Hamid Olimjon, Sharof Rashidov kabi mashhur ijodkor va tarixiy shaxslar hayoti misolida vatanparvarlik, milliy g‘urur va ma’naviy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish.

Jizzax O‘zbekistonning markaziy qismida, Zarafshon va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan. Qadimda bu yer Ustrushona deb atalgan tarixiy voha tarkibiga kirgan. Arxeologik topilmalar bu hududda miloddan avvalgi II asrlarda ham insonlar yashaganini ko‘rsatadi. Jizzax qadimdan Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgani bois, u madaniyat, savdo va hunarmandchilik markazi sifatida tanilgan.



BU QIZIQ

“Jizzax” so‘zi qadimiy so‘g‘d tilidagi “Dizak” so‘zidan olingan bo‘lib, u “qal’a”, “mustahkam joy”, “qo‘rg‘on” degan ma’noni bildiradi. Qadimda bu hudud tog‘lar va dashtlar oralig‘ida joylashgan bo‘lib, harbiy va savdo yo‘llari kesishgan strategik maskan sanalgan. Shu sababli bu yerda mustahkam istehkomlar barpo etilgan va u “Dizak” – ya’ni “qal’ali joy” deb atalgan. Keyinchalik talaffuz o‘zgarib, hozirgi “Jizzax” shakliga kirgan.

Qaliyatepa – Jizzax shahrining janubiy qismida joylashgan o‘rta asr shahar xarobasi bo‘lib, IX–XII asrlarda yirik madaniy markaz bo‘lgan. Qazilmalar natijasida bu yerda shahriston, rabot va qal’a qismlari aniqlangan. Topilmalar orasida sopol buyumlar, tangalar va bezaklar mavjud. Bu joy qadimiy Jizzax shahrining asosiy markazi sifatida tan olinadi.





Qo‘rg‘ontepa – Zomin tumanidagi bu arxeologik yodgorlik miloddan avvalgi II asrga tegishli. U Ustrushona madaniyatining qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. Qazishmalar davomida bu yerdan temir asriga oid qurollar, haykalchalar va sopol buyumlar topilgan. Bu topilmalar Jizzax vohasida o‘troq madaniyat erta shakllanganini ko‘rsatadi.

Amir Temur darvozasi – Jizzax shahrining timsollaridan biri bo‘lib, u XIX asr oxirida bunyod etilgan. Bu inshoot Amir Temur nomi bilan atalgan bo‘lib, shahar tarixini ifodalovchi yodgorlikdir. Bugungi kunda u Jizzaxning ramziy darvozasi sifatida saqlanib, sayyohlar tashrif buyuradigan joyga aylangan.





Xonbandi – Forish tumanidagi qadimiy gidrotexnika inshooti. U X–XI asrlarda qurilgan bo‘lib, Zarafshon tog‘laridan oqib tushadigan suvlarni yig‘ish va sug‘orish tizimini ta’minlash uchun mo‘ljallangan. To‘g‘on mashhur me’moriy va muhandislik yodgorligi sifatida UNESCO himoyasiga kiritilgan. Bu inshoot Markaziy Osiyodagi eng qadimgi suv omborlaridan biridir.

Xoja Nuriddinhoji madrasasi – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax shahrida qurilgan. U islom ta’limi beriladigan maskan bo‘lgan. Madrasa me’morchiligida Sharqona uslub va g‘isht naqshlari uyg‘unlashgan. Hozirda u madaniy meros obyekti sifatida davlat tomonidan muhofazaga olingan.



1916-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan o‘zbek yigitlarini majburiy harbiy xizmatga olish to‘g‘risida farmon chiqqach, Jizzax aholisi bunga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Bu qo‘zg‘olonni Abdurahmon Jevachi boshqargan. U milliy ozodlik harakatining ramzlaridan biri hisoblanadi. Qo‘zg‘olon shafqatsiz bostirilgan bo‘lsa-da, u xalqning erk va mustaqillikka intilishini ifodalagan.




Abdurahmon Jevachi (Abdujabbor o‘g‘li) – 1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘oloni rahbarlaridan biri, xalq qahramoni. U Jizzaxning milliy ozodligi uchun kurashgan. Keyinchalik rus qo‘shinlari tomonidan qatl etilgan, ammo u xalq xotirasida erkinlik timsoli sifatida saqlanib qolgan.



Hamid Olimjon (1909–1944) Zomin tumanida tug‘ilgan. U o‘zbek romantik she’riyati asoschisi, dramaturg va tarjimon sifatida mashhur. “Sevgi”, “Zangiota”, “Oltin vodiydan shovqinlar” kabi asarlari bilan adabiyotimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan. U urush yillarida front gazetasida ishlagan, vatanparvarlik ruhini tarannum etgan.



Sharof Rashidov (1917–1983) Jomboy qishlog‘ida tug‘ilgan. U yozuvchi, siyosatchi va davlat arbobi. 1959–1983-yillarda O‘zbekiston KP Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotibi sifatida mamlakat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Uning “Bo‘rondan kuchli” romani adabiyotimizning yirik asarlaridan biridir. Bugungi kunda Jizzax davlat pedagogika universiteti uning nomi bilan ataladi.



Sirdaryo viloyati O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, qadimda bu hudud So‘g‘diyona va Ustrushona kabi tarixiy o‘lkalar tarkibiga kirgan. Sirdaryo atrofi qadimdan sug‘oriladigan yerlar, uzoq tarixga ega qishloqlar va karvon yo‘llari bilan mashhur bo‘lgan.

Arxeologik topilmalar bu yerda qadimdan odamlar yashaganini, hunarmandchilik va dehqonchilik rivojlanganini ko‘rsatadi.

BU QIZIQ

“Sirdaryo” nomi ikki so‘zdan – “sir” va “daryo” so‘zlaridan tashkil topgan.

Bu yerda “Sir” qadimiy so‘g‘d yoki fors tilida “oqim”, “suv yo‘li”, “daryo” ma’nosini bildirgan. Ya’ni, “Sirdaryo” aslida “Suv daryosi” yoki “Katta daryo” degan ma’noga ega.

Tarixiy manbalarda u Yaksart nomi bilan ham tilga olingan – bu nomni qadim yunon va fors tarixchilari ishlatgan.



Xovostepa – Xovos tumani hududida joylashgan qadimiy shahar xarobalaridan biridir. U miloddan avvalgi davrlarga oid bo‘lib, qazilmalarda kulolchilik buyumlari, metall asboblar topilgan. Bu yodgorlik qadimgi So‘g‘d madaniyatiga mansub.

Qiziltepa – qadimiy qishloq bo‘lib, arxeologik nuqtayi nazardan muhim ahamiyatga ega joy hisoblanadi.

Qiziltepa arxeologik yodgorligi VII–IX asrlarga oid qadimiy qal’a va qabriston qoldiqlaridan iborat. Bu yerdagi qazishmalar natijasida suv o‘tkazish tizimlari, turar-joy binolari qoldiqlari, sopol (keramika) buyumlar, shuningdek, tilla va misdan yasalgan buyumlar topilgan.





Nurtepa arxeologik yodgorligi Guliston shahri yaqinida joylashgan. U O‘rta asrlarga oid bo‘lib, shahriston va rabot qismlaridan tashkil topgan. Bu joy Sirdaryo vohasining o‘rta asr madaniyatini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Sardoba – cho‘l hududlarida suvni saqlash uchun qurilgan qadimiy inshootdir. Sirdaryo viloyatidagi Yog‘ochli sardoba XVII–XVIII asrlarda bunyod etilgan bo‘lib, karvon yo‘llarida sayohatchilar va chorvadorlar uchun suv manbayi bo‘lgan. Bu sardoba O‘zbekiston hududidagi eng yaxshi saqlangan gidroinshootlardan biridir.



Sirdaryo viloyati hududida Sovet davrida yirik irrigatsiya va melioratsiya ishlari amalga oshirilgan. 1950–1960-yillarda cho‘l yerlari o‘zlashtirilib, yangi shaharlar – Guliston, Shirin, Yangiyer barpo etilgan.



To‘ra Sulaymon (1934–2005) – O‘zbekiston xalq shoiri, publitsist. U Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida tug‘ilgan. Shoir “Ko‘ngil”, “Yuragimda bir daryo”, “Ona yurtingni sev”, “Yurakda yurt”, “O‘zbekman” kabi she’rlari bilan tanilgan. Uning ijodida milliy g‘urur, istiqlol ruhi, ona yurtga muhabbat va insoniylik g‘oyalari chuqur tarannum etilgan.



Halima Xudoyberdiyeva (1947–2018) – O‘zbekiston xalq shoiri, adabiyot va madaniyat sohasining yirik namoyandalaridan biri. U Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida tug‘ilgan. “Oq olmalar”, “Chaman”, “Muqaddas ayol”, “To‘marisning aytgani” kabi she’riy to‘plamlari bilan tanilgan. Shoiraning ijodida vatanparvarlik, ayol go‘zalligi, insoniylik va ezgulik g‘oyalari chuqur mazmunli ahamiyatga ega.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Jizzax nomi qayerdan olingan va u qanday ma’noni bildiradi?
2. Sirdaryo viloyati qachon tashkil etilgan va uning nomi nimani anglatadi?
3. Jizzax va Sirdaryo hududlarida topilgan qadimiy yodgorliklar qaysilar?
4. Bu ikki viloyatdan chiqqan mashhur shoir va yozuvchilardan kimlarni bilasiz?